


## **VI. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2022- yilning yanvar–martida 1 892 ta kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi( 2021- yilning shu davriga nisbatan 10,5 %ga kamdir).

### **Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi 2022- yil yanvar–mart holatiga, jamiga nisbatan %da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 760 ta (jami tashkil etilgan subyektlarning 40,2 %i), sanoatda 416 ta (22,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi 158 ta (8,4 %), qurilishda 146 ta(7,7 %), boshqa turdagи xizmatlar 146 ta (7,7 %), tashish tashkil etilgan.

2022- yilning yanvar-mart holatiga kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz) soni 43 447 ta (o‘tgan yilning shu davrida 38 853 ta) ni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari esa 41 074 tani (jamiga nisbatan 94,5 %) tashkil etdi.

**Farg‘ona viloyatida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi  
tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar**

	<i>2021- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	<i>birklikda Farqi (+;-)</i>
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>2113</b>	<b>1892</b>	<b>-221</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	289	302	13
Qo‘qon	222	182	-40
Quvasoy	84	64	-20
Marg‘ilon	184	120	-64
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	128	117	-11
Qo‘shtepa	66	73	7
Bog‘dod	92	74	-18
Buvayda	88	79	-9
Beshariq	71	85	14
Quva	104	83	-21
Uchko‘prik	136	81	-55
Rishton	104	85	-19
So‘x	53	60	7
Toshloq	96	109	13
O‘zbekiston	98	83	-15
Farg‘ona	103	82	-21
Dang‘ara	87	92	5
Furqat	53	70	17
Yozyovon	55	51	-4

**2022- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
yangi tashkil topgan jami kichik korxona  
va mikrofirmalarining ulushi**  
*2022- yil yanvar-mart holatiga, jamiga nisbatan %da*



2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo‘yicha eng ko‘p Farg‘ona shahrida – 16,0 %, Qo‘qon shahrida – 9,6 %, Marg‘ilon shahrida – 6,3 %, Oltiariq tumanida – 6,2 %, Toshloq tumanida – 5,8 % , Dang‘ara tumanida – 4,9 % , Beshariq tumanida – 4,5 % , Rishton tumanida – 4,9 %, ni tashkil etgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalar**


	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	<i>birklikda</i> <i>Farqi (+;-)</i>
<b>Jami</b>	<b>2 113</b>	<b>1 892</b>	<b>-221</b>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	114	158	44
Sanoat	626	416	-210
Qurilish	171	146	-25
Savdo	804	760	-44
Tashish va saqlash	69	85	16
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	79	91	12
Axborot va aloqa	77	43	-34
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	50	47	-3
Boshqa faoliyat turlari	123	146	23

*2022- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdoda – 760 ta, shuningdek :*



2022- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 14,3 birlikni tashkil etdi.


**2022- yilning yanvar-martida Farg'onan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni soni<sup>1)</sup> (har 1000 aholiga, birlikda).**



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida 23,3 birlik, Quvasoy shahrida 20,5 birlik, Qo'qon shahrida 19,4 birlik, Marg'ilon shahrida 17,3 birlik, So'x tumanida 15,8 birlik, Dang'ara tumanida 14,8 birlik, Quva tumanida 14,8 birlik, Furqat tumanida 14,6 birlikni tashkil etdi. Beshariq tumanida 8,6 birlikka teng bo'lib, ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib qolmoqda.

<sup>1)</sup> Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini hisobga olgan holda)


**2022- yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo‘yicha  
kichik tadbirkorlik subyektlarining soni soni<sup>1)</sup>  
(har 1 000 aholiga, birlikda).**



**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning  
YAHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, %da**

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 59,4 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida 61,9 %).

YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining ko‘payishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.




<sup>1)</sup> Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olgan holda)

**2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>O'lcov birligi</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>Farqi (+;-)</i>
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	36 927	41 074	4 147
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar	birlik	2 113	1 892	-221
<i>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</i>				
YAIM	%	61,2	59,4	-1,8
Sanoat	%	38,0	35,0	-3,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	94,5	94,1	-0,4
Investitsiya	%	78,2	73,2	-5,0
Qurilish	%	93,0	85,4	-7,6
Chakana savdo	%	91,2	86,9	-4,3
Xizmatlar	%	18,7	18,5	-0,2
Yuk tashish	%	94,0	86,1	-7,9
Yuk aylanmasi	%	21,1	24,4	3,3
Yo'lovchi tashish	%	96,0	96,2	0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,3	93,7	-3,6
Eksport	%	36,8	30,7	-6,1
Import	%	81,4	50,6	-30,8

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi**

(yanvar-mart, %da)





## Hududlar bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushlari

*(2022- yil yanvar-mart holatiga, jamiga nisbatan, % da)*


	Sanoat		<i>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</i>		Investitsiyalar		Qurilish	
	2021- yil	2022- yil	2021- yil	2022- yil	2021- yil	2022- yil	2021- yil	2022- yil
Viloyat	<b>38,0</b>	<b>35,0</b>	<b>94,4</b>	<b>94,1</b>	<b>78,2</b>	<b>73,2</b>	<b>93,0</b>	<b>85,4</b>
<i>shaharlar:</i>								
Farg‘ona	16,1	20,6	97,0	96,2	54,6	22,8	94,7	92,5
Qo‘qon	31,7	29,1	99,8	99,8	78,0	90,1	92,9	95,1
Quvasoy	27,5	28,4	86,4	99,5	73,2	88,6	79,2	99,0
Marg‘ilon	100,0	100,0	100,0	100,0	94,5	95,0	79,6	24,8
<i>tumanlar:</i>								
Oltiariq	57,8	29,7	99,8	99,9	95,1	78,3	99,5	99,1
Qo‘shtepa	34,9	26,4	87,4	95,3	31,8	99,3	83,9	99,6
Bog‘dod	76,5	79,9	86,3	87,2	91,7	97,0	99,3	97,5
Buvayda	86,7	83,3	100,0	100,0	98,2	97,2	100,0	99,7
Beshariq	100,0	100,0	93,9	94,8	89,3	94,7	94,1	97,0
Quva	23,2	22,3	99,9	100,0	96,9	63,3	99,7	98,4
Uchko‘prik	71,6	78,0	99,9	100,0	97,4	95,6	99,6	99,4
Rishton	36,8	42,7	99,9	100,0	67,0	52,3	99,3	98,7
So‘x	100,0	100,0	100,0	100,0	29,4	43,1	97,2	85,1
Toshloq	10,9	9,4	99,7	99,8	97,7	91,0	99,8	99,3
O‘zbekiston	61,4	55,2	99,7	99,8	94,3	93,3	99,8	99,4
Farg‘ona	15,6	9,1	75,4	66,8	88,4	42,9	99,3	98,1
Dang‘ara	86,3	47,5	91,9	90,7	95,8	58,0	98,5	98,0
Furqat	100,0	100,0	99,9	100,0	91,3	91,3	100,0	99,9
Yozyovon	100,0	100,0	99,7	99,9	83,7	95,7	84,1	88,4

	<i>Xizmatlar</i>		<i>Savdo</i>		<i>Eksport</i>	
	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>
Viloyat	<b>18,7</b>	<b>18,5</b>	<b>91,2</b>	<b>86,9</b>	<b>36,7</b>	<b>50,6</b>
<i>shaharlar:</i>						
Farg‘ona	30,9	5,6	78,9	73,8	35,5	47,6
Qo‘qon	26,2	8,8	92,7	79,5	25,3	13,0
Quvasoy	17,2	21,8	79,9	92,1	81,2	40,8
Marg‘ilon	34,0	11,9	97,7	98,5	97,3	81,4
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	30,5	64,7	92,0	94,4	43,3	75,1
Qo‘shtepa	6,6	169,0	97,9	98,5	8,3	5,8
Bog‘dod	6,8	15,3	92,8	96,6	100,0	100,0
Buvayda	14,4	88,4	95,2	96,7	44,1	55,5
Beshariq	9,7	12,0	95,2	96,6	100,0	46,6
Quva	10,4	11,8	95,4	96,9	10,8	25,9
Uchko‘prik	22,1	18,0	85,1	59,1	85,3	68,5
Rishton	6,7	51,4	95,3	96,5	47,3	39,4
So‘x	12,9	3,5	98,7	98,6	100,0	100,0
Toshloq	17,6	25,3	94,7	98,3	8,2	3,1
O‘zbekiston	11,1	31,7	94,4	96,5	38,8	34,1
Farg‘ona	9,6	19,5	98,1	98,4	76,5	56,4
Dang‘ara	13,5	37,3	95,9	96,9	100,0	40,8
Furqat	2,5	84,1	96,0	97,2	100,0	55,0
Yozyovon	9,8	83,4	94,8	96,4	100,0	100,0

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari maxsulot(ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi 52,7 mln. AQSh doll.ni yoki umumiylashtirilgan eksportning hajmi 30,7 %ni tashkil etdi.




2022- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bog'dod tumani – 100,0 %, So'x tumani – 100,0 %, Yozyoyon tumani – 100,0 %, Marg'ilon shahri – 81,4 %, Oltiariq tumani – 75,1 %, ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Toshloq tumani – 3,1 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-mart oylaridakichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 181,5 mln. AQSh doll.ni yoki umumiylashtirilgan importning 50,6 %ini tashkil etdi.




## Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da




2022- yilning yanvar - mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmat) importining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buvayda tumanida – 100,0 %, Rishton tumanida – 100,0 %, So'x tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 %, Dang'ara tumanida – 99,7 %ga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkich Farg'ona shahari – 12,2 %ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 2 190,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik  
tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti  
ishlab chiqarish hajmi, mldr. so'm**




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qo'qon shahar (332,6 mldr. so'm), Farg'ona shahri (298,7 mldr. so'm) Uchko'prik tumani (255,8 mldr. so'm), Marg'ilon shahri (203,4 mldr. so'm) va Besariq (177,6 mldr. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (14,0 mldr. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiyligi hajmida kichik biznesning ulushi 35,0 foizni tashkil etdi.



## 2022- yilning yanvar-mart oylarida jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Beshariq tumani (100,0 %), So'x tumani(100,0 %), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahari (100,0 %), Buvayda tumani (83,3 %), Bog'dod tumani (79,9 %) va Uchko'prik tumani – 78,0 % hissasiga tegishli. Farg'ona tumanlarida (9,1 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 4 043,3 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana tovar aylanmasining 86,9 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 101,5 %ni tashkil qildi.



**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha  
kichik tadbirdorlik (biznes)da chakana  
savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Marg'ilon shahri (837,7 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (786,8 mlrd. so'm), Farg'ona shahri (679,3 mlrd. so'm), Quva tumani (189,4 mlrd. so'm) va Uchko'prik tumani (143,7 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (137,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan kurilish ishlari hajmi 1 340,7 mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 85,4 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 98,5 %ni tashkil etdi.




## 2022- yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (1 159,0 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (161,0 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (159,3 mlrd. so'm), Buvayda tumani (84,3 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (58,7 mlrd. so'm), Toshloq tumani (56,0 mlrd. so'm) hamda O'zbekiston (50,9 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 895,2 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 18,5 %ni tashkil kildi. 2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 108,7 % o'sish kuzatildi.







**2022- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha  
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar  
sohasi hajmi va o‘sish sur’ati**




Hududlar bo‘yicha eng yuqori xizmatlar hajmi Qo‘shtepa tumani (169,0 mlrd. so‘m), Buvayda tumani (88,4 mlrd. so‘m), Furqat tumani(84,1 mlrd. so‘m), Yozyovon tumani (83,4 mlrd. so‘m), Oltiariq tumani (64,7 mlrd. so‘m), Farg‘ona shahri (55,3 mlrd. so‘m) hissasigato‘g‘ri keladi.



2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 86,1 %ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,3 %ni tashkil qildi.



2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik biznesning ulushi 24,4 %ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 109,9 %ni tashkil kildi.



2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik biznesning ulushi 93,7 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 5,1 %ga ko‘payishi kuzatildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik biznesning ulushi 96,2 %ni tashkil etib, bu esa 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 9,2 %ga ko‘payishiga olib

